


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

No 510
"29" 08 2022y.



**"Ishonchilik nazariyasi va diagnostika asoslari"
FANI SILLABUSI**

Bilim sohasi:

300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha

Ta'lif sohasi:

310000 – Muhandislik ishi

Ta'lif yo'nalishi:

5310600 – Transport vositalari muhandisligi
(avtomobil transporti)

Qarshi-2022

Fan sillabusi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lif vazirligining 2020 yil 14-avgustdagi 3-sonli buyrig'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va Qarshi muhandislik-iqtisoditot instituti Kengashi tomonidan 2022 yil 28-iyundagi 11-sonli yig'ilishida tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Karimov A.A.. - QarMII "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasи katta o'qituvchisi

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasining 2022-yil 26.08. dagi 1- son yig'ilishida hamda "Muhandislik texnikasi" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022-yil 27.08. dagi 1-son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2020-yil 29.08. dagi 1-son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

Kafedra mudiri:

Sh.R.Turdiyev

E.E. Eshdavlatov

O'.N.Abduraxmonov

“Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” fani sillabusi

5310600 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)

Fan/modul kodi INDA 4101	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 5	ECTS krediti 2
Fan (modul) turi Tanlov	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 2
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari(soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari	30	30	60

O‘qituvchilar haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Transport vositalari muhandisligi		
O‘qituvchilar	F.I.Sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Karimov Akmal Akbarovich	+998914503130	karimovakmalakbarovich@gmail.com
Laboratoriya mashg‘uloti	Karimov Akmal Akbarovich	+998914503130	karimovakmalakbarovich@gmail.com

I.Fanning mazmuni

Hozirda mamlakatimizda sanoat va xalq xo’jaligining barcha sohalarida har xil turdagи transport vositalari ishlab turibdi. Yillar o’tishi mobaynida yoki bosib o’tilgan masofa oshib borgan sari ekspluatatsiya jarayonida ularning texnik holati o’zgarib boradi. Shu sababli transport vositalarining ishonchliligin oshirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Ma’lumki, ekspluatatsiya davrida texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash uchun ketadigan sarf-harajatlar transport vositasining boshlang’ich narxidan ancha ortiq. Ishonchlilik muammosini hal qilish esa katta mablag’larni tejash imkonini beradi. Texnik taraqqiyot ishonchlilik fani oldiga transport vositalarini loyihalash, ishlab chiqarish va ularning ekspluatatsiyasi, og’ir sharoit va favqulodda vaziyat vujudga kelgandagi ish qobiliyatini ta’minlash, texnik holatini oldindan aytib berish, diagnostikalash va eng optimal (oqilona) konstruksion yechimlarni topish bo'yicha vazifalar qo'yadi.

Ishonchlilik fani texnik qurilma va tizimlar sifat ko'rsatkichlarining o'zgarish qonunlarini o'rganadi hamda shu asosda eng kam sarf-harajatlar bilan ularning buzilmasdan ishslash muddatlarini oshirish usullarini ishlab chiqadi.

Ishonchlilik muammolarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri transport vositasi (ob'ekt) ekspluatatsiya jarayonida boshlang'ich parametrlarning o'zgarishi vaqt omili orqali baholansa, ikkinchisi ob'ektning texnik holati, uning chiqish parametrlari (sifat ko'rsatkichlari)ni saqlab qolish nuqtai nazaridan oldindan aytib beriladi (bashorat qilinadi). Fanni o'qitishdan maqsad - ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari mukammal o'rganish, shu asosda transport vositalari ekspluatatsiyasi bo'yicha uslub va me'yirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalda samarali qo'llashdir.

- **Fanning vazifasi** transport vositalari ekspluatatsiyasidagi ishonchlilik ko'rsatkichlari va diagnostikalash tizimi to'g'risida tasavvur hosil qilish;

- transport vositalarining ishonchliligi va ishslash qobiliyatini ta'minlashni, ularning ishonchlilagini baholash hamda diagnostika usullari va vositalarini amalda tadbiq qilishni o'rganish;

- transport vositalari asosiy ekspluatatsion xarakteristikalarini tajribaviy aniqlash, ekspluatatsiya sharoitida ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil etish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

Nº	Mavzular	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	soat
1.	Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari fanining maqsadi, vazifasi	Transport vositalarining ishonchliligi fanining predmeti. Ishonchlilik muammosining falsafiy asoslari. Ishonchlilikni iqtisodiy jihatni. Fanning vazifalari, tuzilishi va bakalavrlar tayyorlashdagi ahamiyati.	2
2.	Transport vositalarining texnik holati va ishslash qobiliyati	Transport vositalarining texnik holati va ishslash qobiliyati ko'rsatkichlari va tushunchalar. Buzilish va nosozlik. Buzilishlar tasnifi.	2

		Buzilishlarni transport jarayoniga ta'siri.	
3.	Transport vositalari detallari va uzellarining ekspluatatsiyasi jarayonida o'zgarishi	Transport vositasi detallarining eskirishi, zanglashi, yemirilishi. Ishqalanish va uning turlari. Yeyilish turlari va tasnifi: mexanik; molekulyar - mexanik; korrozion - mexanik; erozion va kavatatsion. Transport vositasi detallari yeyilishining xarakterli qonuniyatlarini.	2
4.	Ishonchlilikka ta'sir etuvchi omillar	<i>Konstruksion omillar:</i> ishonchlilik darajasi; konstruksiyaning murakkablik darajasi; unifikatsiya darajasi. <i>Ekspluatatsion omillar:</i> yo'l sharoitlari; iqlim sharoitlari; transport sharoitlari; foydalanish jadalligi; haydovchining malakasi. <i>Texnologik omillar:</i> Ta'mirlash va TXK sifati; foydalilanayotgan ekspluatatsion materiallar va ehtiyyot qismlar sifati, transport vositalarining saqlash sifati.	2
5.	Diagnostikasining vazifalari va rivojlanish yo'naliishlari	Diagnostikaning maqsadi va vazifalari. Transport vositalarini yaratish va ekspluatatsiya bosqichlarida diagnostik ta'minlash. Oddiy avtomatlashtirilgan diagnostik tizimi. Transport vositalarining texnik diagnostikasiga qo'yiladigan talablar.	2
6.	Diagnostikaning umumiy jarayoni va texnik diagnostikalash vositalariga qo'yiladigan talablar	Diagnostikalashning umumiy jarayoni: ob'ektga funksional yoki test ta'sirlari o'tkazish, diagnostika parametrlarni o'lchash, axborotga ishlov berish, berilgan me'yorga bo'yicha diagnoz qo'yish. Transport vositalarini texnik diagnostikalash usullari: ekspluatatsion xususiyatlardan kelib chiquvchi, geometrik va	2

		hamroh jarayonlar parametrlari bo'yicha. Texnik dagnostikalash vositalari: tashqi, transport vositasiga doimiy o'rnatilgan va vaqtı-vaqtı bilan o'rnatiladigan. Diagnostik datchiklar.	
7.	Transport vositalari xarakat xavfsizligini ta'minlovchi tutashma va tizimlarni diagnostika qilish texnik vositalari	Harakat havfsizligini ta'minlovchi uzellarni nazorat qilish uchun me'yoriy negizi. Tormoz tizimini dagnostikalash: tormoz tizimiga qo'yiladigan asosiy ekspluatatsion talablar; diagnostik parametrlari; dagnostikalash usullari (harakatda va stenda sinash). Tormozlanish xususiyatlarini dagnostikalash stendlarining tasnifi. Stendlarining namunaviy shakllari. Maydonchali va rolikli inersion hamda kuch turidagi stendlar. Rul boshqaruvini dagnostikalash.	2
Jami:			14

III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

"Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlangan maxsus auditoriyalardan foydalaniladi, laboratoriya xonalari hamda yetakchi avtotransport korxonalarida o'tkaziladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar mavjudligi, unda ishning maqsadi, mazmuni, bajarish tartibi keltirilgan bo'lishi kerak.

Laboratoriya mashg'ulotlarini zaruriy dasturlar bilan ta'minlangan zamonaviy kompyuterlar va boshqa loyiha vositalari mavjud bo'lgan honalarda, shuningdek, talabalar soni 8-12 nafardan oshmagan guruhlarda tashkil qilish tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari rejalashtirilgan.

T/r	Laboratoriya mashg‘ulotlar mavzulari	soat
1.	Transport vositalari xizmat muddatlarini muqobillashtirish	4
2.	Transport vositalari detallarini resursini kompyuterda hisoblash	4
3.	Transport vositalari texnik ekspluatatsiyasi samaradorligini baholash kopliks ko’rsatkichlari	4
4.	Transport vositalari tormozlash xususiyatlarini diagnostikalash	4
Jami:		16

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta’limda talabalar asosan har-xil transportlarda yuk va yo’lovchilar tashish boyicha bilimlarini mustaqil oshirishlarinii nazarda tutadi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

Transport vositasi tizimlarida vujudga keladagan buzulish va nosozliklarining tasniflanishi Agregat va mexanizm birikmalarining yeyilish va eskirish jarayonlarini pasaytirish bo’yicha ekspluatatsiya jarayonida choralar ishlab chiqish

Transport vositalari tizim va detallari bo’yicha ishonchlilik ko’rsatkichlarini aniqlash, sinash va axborotlarga ishlov berish tadbirlarini ishlab chiqish

Diagnostik ob’yektlar bo’yicha qoldiq resursini va diagnostik parametrlar xarakteristikalarini aniqlash.

Transport vositalariga o’rnatilgan diagnostik nazorat vositalari tahlili.

Transport vositalarini diagnostikalashda qo’llaniladigan avtoskaynerlar

Diagnostikalashda zamonaviy texnik moslamalar va jihozlar

Diagnostikalash tizimi bo’yicha chet el tajribasi

Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).

Talaba Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari fanida transport vositalari muhandisligi fanlarining qonun va qoidalari, injenerlik amaliyotida juda ko’p qo’llanishi mumkin bo’lgan masalalari qoidalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo’lishi; (bilim)***

Talaba amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo’yicha amaliy ko’nikmalar hosil qilish va o’zlashtirish mashg‘ulotlarga to’liq ishtiroy etish va modul platformmasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazoratini biladi.

Talaba mustaqil ta'lif mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajaradi. (test, referat va boshqa usullarda);

-transportdagagi Davlat siyosati hamda ularning mamlakatimiz va jahonda rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari;

-transport turlari bo'yicha asosiy tushunchalar;

-har xil transport turlari bo'yicha asosiy ish ko'rsatkichlari va ularni yaxshilash;

-har xil transport turlari o'zaro yondoshuvining texnik, texnologik va tashkiliy shartlari;

-transportda energiya taminoti tizimi;

-transportning atrof-muhitga ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-sohadagi chet el va mamlakatdagi ilmiy-texnik taraqqiyot haqidagi ma'lumotni tizimlashtirishni;

-turli transport turlaridan foydalanish sharoitlarini aniqlashni;

-transport turlari bo'yicha ish ko'rsatkichlarini hisoblashni;

-sohadagi mavjud asosiy huquqiy va meyoriy hujjatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;

-transportlarda tashishga bo'lgan talablarni o'z vaqtida qondirish;

-transport turlari bo'yicha ular ishini belgilovchi ko'rsatkichlardan foydalanish;

-transport turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sifati va uning raqobatbardoshligini iqtisodiy baxolash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

VII. Ta'lif texnologiyalari va uslublari

Darsda quyidagi o'quv usullari va shakllari qo'llaniladi:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- semenarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uch

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va amaliy-uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, amaliyot darslarida berilgan vazifallarni bajarish va mashg'ulotlardagi faollik, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lif topshiriqlarini bajarish hamda joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, shuningdek, ushbu fan bo'yicha yakuniy nazorat ishini topshirish.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 -son "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiropini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va boholash tizimi to'g'risidagi Nizom (*Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus*

ta'lif vazirining 2018 yil 9 avgustdag'i 19-2018-son buyrug'iiga binoan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrd'a 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishi "Joriy baholash" hamda "Oraliq baholash" va "Yakuniy baholash" turlari orqali aniqlanadi.

Joriy baholash (JB) - semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli (fanning amaliy va laboratoriya mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va ko'nikma darajasini aniqlash turi hisoblanadi.

JB talaba tomonidan ishchi fan dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, talabaning adabiyotlar bilan ishslash amaliy va laboratoriya ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), (bilaman, bildim, bilishni hohlayman), tahlil, mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qobiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarining natijalari JBda inobatga olinadi.

Oraliq baholash (OB) – semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va ko'nikma darajasini aniqlash turi hisoblanadi.

OB talaba tomonidan ishchi fan dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, talabaning adabiyotlar bilan ishslash amaliy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tahlil, mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qibiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Fanning xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda OB soni bir semestrda 1 tani tashkil etadi va u test shaklida o'tkaziladi.

OB ishchi fan dasturiga asosan dekanat tomonidan belgilangan jadval asosida o'tkaziladi. Talaba OBni belgilangan muddatlarda topshirishi shart.

OB asosan o'quv mashg'ulotlari davomida amalga oshiriladi. Talabaning JB va OBdan olgan ijobjiy baholari asosida unga yakuniy baholashni topshirishga ruxsat beriladi.

JB va OB ni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, fakultet dekani va kafedra mudiri hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan tuzilgan komissiya xulosasi asosida OB natijalari bekor qilinadi hamda OB qayta o'tkaziladi.

Yakuniy baholash (Yab) – semestr yakunida fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning talaba tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash turi hisoblanadi.

Yab talaba tomonidan ishchi fan dasturining semestrga mo'ljallangan bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, uning mantiqiy fikrlashi, amaliy ko'nikmalari, muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tizimli va tanqidiy tahlil qila olishi, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qibiliyatini aniqlashga qaratiladi.

Fanning xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda Yab yozma yoki test shaklida o'tkaziladi.

Yabni o'tkazish jadvali o'quv jarayoni grafigiga muvofiq fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan tayyorlangan oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanagan Yab jadvali asosida o'tkaziladi. Talaba Yabni belgilangan muddatlarda topshirishi shart.

Yab ni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi yoki o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

rahbarligida tuzilgan komissiya xulosasi asosida Yab natijalar bekor qilinadi hamda Yab qayta o'tkaziladi.

IX. Fan bo'yicha talabalar o'zlashtirishini baholash tizimi Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarning har bir semestrda fanlarni o'zlashtirishi har bir baholash turlari bo'yicha: 5 (a'lo), 4 (yaxshi), 3 (qoniqarli) va 2 (qoniqarsiz) ko'rinishida baholanadi. 5, 4 va 3 baholar ijobjiy hisoblanadi. Baholashda raqam va matn bir xil talqin etiladi.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, ifodalash, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

- fan dasturni o'zlashtirmaganlik;
- fanning mohiyatini bilmaslik;
- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- mustaqil fikrlay olmaslik.

Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlari va OB 5 baho (bal)lik tizimda ushbu fandan o'tkaziladigan Yabga qadar bo'lgan muddatda topshirilishi shart. Ushbu muddatda ularni ijobjiy bahoga topshirmagan talaba bu fandan o'tkaziladigan Yabga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Uzrli sabablarga (talabaning kasal bo'lishi, yaqin qarindoshlari oilasida favqulodda holatlar, yashash joyi bilan bog'liq muammoli vaziyatlar, respublika va xalqaro miqyosdagi tadbirlarda ishtirok etish) ko'ra baholashlarda ishtirok etmagan talabaga, o'qishini boshlab asoslovchi hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, fakultet dekani farmoyishi bilan baholashlarni muddatlari ko'rsatilgan (o'quv yili semestri davomida) shaxsiy grafik asosida topshirishga ruxsat beriladi.

Kuzgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi 3 tagacha bo'lgan talabalarga bir oy gacha, bahorgi semestr natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi 3 tagacha bo'lgan talabalarga, bitiruvchi kursdan boshqa kurs talabalariga yangi o'quv yili boshidan qayta

topshirishga qo'shimcha bir oy muddat beriladi. Akademik qarzdorligi 4 ta va undan yuqori bo'lgan talabalarga qayta topshirishga ro'xsat berilmaydi va rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Berilgan muddatda akademik qarzdorlikni qayta topshirishlar soni 2 martadan oshmasligi kerak. Ikkinchi qayta topshirish fakultet dekani tasdiqlagan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Qo'shimcha muddatlarda ham akademik qarzdorlikni bartaraf etmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha baholash turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekani taqdimnomasiga muvofiq rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, 2 kungacha bo'lgan muddatda o'z xulosasini bildiradi. Fan o'qituvchisining qo'ygan bahoni asoslovchi qisqa ma'lumotini oladi.

Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasida baholash jarayoni mazkur Nizom asosida o'tkazilganligi yoki Nizom talablari buzilganligi yoxud baholash to'g'riliqi (noto'g'riliqi) to'g'risida xulosa beradi.

Apellyatsiya komissiyasi xulosasiga ko'ra Nizom talablari buzilgan yoki baholash noto'g'ri bo'lgan deb topilgan taqdirda, mazkur komissiya qarori bilan baholash qayta o'tkaziladi.

Kursda qoldirilgan talaba fan(lar)ni o'zlashtirmagan semestr boshidan to'lov-kontrakt asosida o'qishini davom ettiradi va mazkur semestr bo'yicha o'quv rejada belgilangan ammo o'zlashtirilmagan barcha fanlarni qayta o'zlashtirishi hamda baholanishi talab etiladi.

Talaba OB dan 3, 4 yoki 5 baho olgan taqdirda, ya'ni ijobjiy baholanganda uni qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar talaba yozma nazorat ishlarini OB yoki YAB topshirmagan bo'lsa, u holda qaydnama (Elektron tizim)ning ushbu talabaga mos keluvchi qatordagi tegishli katakda "0"(nol) deb yoziladi.

X. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari **Asosiy adabiyotlar**

Asosiy adabiyotlar

1. Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari: Oliy o'quv yurtlari bakalavrлari uchun darslik./A.A.Tojiboyev, Q.M.Sidiqnazarov, K.I.Ibrohimov, N.V.Kuznetsov, T.: "Extremum-Press" 2015, 296 b

2. Автомобиллар техник эксплуатацияси. Қайта ишланган ва тўлдирилган русча 4-нашридан (проф. Кузнецов Е.С. таҳрири остида. М.:Наука 2004й. 535 б.) таржима проф. Сидиқназаров К.М. умумий таҳрири остида, Тошкент "VORIS-NASHRIYOT", 2006. – 670 б.

3. Автомобиллар техник эксплуатацияси. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги автотранспорт олий ўкув юртлари талabalari учун дарслик

сифатида тавсия этган. Проф. Сидикназаров Қ.М. умумий таҳрири остида, Тошкент “VORIS-NASHRIYOT”, 2008. – 560 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Асатов Э., Тожибоев А. “Ишончлилик назарияси ва диагностика асослари” Ўқув қўлланма, Т.: 2006й., 160 б.
2. Йулдошев Ш.У. "Машиналар ишончлилиги ва уларни таъмирлаш асослари" 1994 й.
3. Автотранспорт воситалари сервиси: (дарслик) Муаллифлар жамоаси . М.А.Икрамовнинг таҳрири остида.ТАЙИ 2010 й. 268 б
4. Автотранспорт воситалари сервиси: 2-қисм (дарслик). М.А.Икрамовнинг таҳрири остида. 2011 й. 192 б
5. “Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar to'plami ./ T. 2016 yil

